

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN MELIORATIV GIDROGEOLOGIYA FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Meliorativ gidrogeologiya fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Meliorativ gidrogeologiya

1. Sug'oriladigan maydonlarning umumiy gidrogeologik sharoitlari, ularning sizot va osma sizot suvlari;
2. Sug'oriladigan yerlarda gidrogeologik-meliorativ jarayonlarning o'ziga xosligi, sizot suvlarining rejimi xususiyatlari va Melioratsiya qilinadigan maydonlarda suv balansi;
3. Sug'oriladigan yerlarni gidrogeologik-meliorativ tumanlarga bo'lish, bashoratlash, kollektor-zovur tizimlarini asoslashning gidrogeologik tamoyillari;
4. Sug'oriladigan yerlarning gidrogeologik-meliorativ holati ustidan nazorat o'tkazish tamoyillari va usullari (monitoring).

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/ r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Sugʻoriladigan maydonlarning umumiy gidrogeologik sharoitlari, ularning sizot va osma sizot suvlari	Melioratsiya qilinadigan yerlar gidrogeologik sharoitining omillari va koʻrsatkichlari, Iqlim sharoitlari, yerlarning tabiiy drenajlanganligi, aeratsiya mintaqasi xususiyatlari, sizot suvlarining yotish chuqurligi, minerallashtirilganligi, rejimi va balansi, umumiy gidrogeokimyoviy sharoitlar, sugʻoriladigan yerlarning gidrogeologik sharoiti guruhlari, sugʻoriladigan yerlarda tarqalgan sizot va osma sizot suvlari, sizot suvlari sathi va aeratsiya mintaqasining litologik tarkibi, sizot suvlarining geografik tarqalishi, irrigatsion sizot suvlari, sizot suvlarini bosimli suvlardan ozuqa olishi, sizot suvlarini sarflanishi, osma sizot suvlari va ularni yerlarni meliorativ holatiga taʼsirini tahlil qilish boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻladi.	25 %	10 ta
2	Sugʻoriladigan yerlarda gidrogeologik-meliorativ jarayonlarning oʻziga xosligi, sizot suvlarining rejimi xususiyatlari va Melioratsiya qilinadigan maydonlarda suv balansi	Sugʻoriladigan yerlarda gidrogeologik-meliorativ jarayonlarning toʻgʻrisida umumiy tushunchalar va taʼriflar, gidrogeologik jarayonni belgilab beruvchi tabiiy omillar, sizot suvlari oqimlarining ozuqa olish va tranzit mintaqasi, oqimlarining sarflanish mintaqasi, oqimlarining qayta pasayish va yoyilib ketishi mintaqasi. melioratsiya qilinayotgan maydonlarda tarqalgan sizot suvlarining rejimi xususiyatlari, tabiiy rejimlar, buzilgan rejimlar, rejimini genetik turlari, tabiiy intensiv (kuchli) drenalangan va drenalangan sugʻorish tumanlarida tarqalgan sizot suvlarining rejimi, kuchsiz tabiiy drenalangan, sahro va yarim sahrolarda joylashgan sugʻorish tumanlari sizot suvlari rejimi, sizot suvlarining infiltratsion ozuqalanishi va aeratsiya mintaqasiga sarflanishining umumiy qonuniyatlari, yer osti suvi oqimining kirimi va oqib chiqishi, sizot suvlari minerallashtirilganligi va kimyoviy tarkibini tahlil qilish boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻladi.	50 %	20 ta

3	Sugʻoriladigan yerlarni gidrogeologik-meliorativ tumanlarga boʻlish, bashoratlash, kollektor-zovur tizimlarini asoslashning gidrogeologik tamoyillari	Melioratsiya qilinadigan maydonlarda suv balansini oʻrganish, maydonchalarini tanlash va tadqiqotlarining umumiy tamoyillari, aeratsiya mintaqasi gruntlarini suvli-fizik xossalarini oʻrganish, suv balansini ayrim elementlarini aniqlash, yer usti suvlari oqimining sarfi va sizot suvlarini infiltratsion ozuqa olishi, balans konturiga kirishi va chiqishi, bugʻlanish va transpiratsiyaga sarf boʻladigan suvlar, sizot suvlari balansini natijalari tahlili, sugʻoriladigan yerlarni gidrogeologik-meliorativ tumanlarga boʻlish tamoyillari va geofiltratsion sxemalarni tuzish, gidrogeologik-meliorativ tumanlarga boʻlish tamoyillari, xaritasini tuzish tamoyillari, gidrogeologik-meliorativ bashoratlarning vazifalari va usullari, kollektor-zovur tizimlarini asoslashning gidrogeologik tamoyillari, sugʻorish va zax qochirish melioratsiyasidan umumiy maʼlumotlar, shoʻrlangan tuproqlarni yuvish, gidrotexnik melioratsiyalar, vertikal zovurlarni loyihalashning gidrogeologik asoslari, ekspluatatsion quduqlarning konstruksiyasini tahlil qilish boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻladi.	10 %	4 ta
4	Sugʻoriladigan yerlarning gidrogeologik-meliorativ holati ustidan nazorat oʻtkazish tamoyillari va usullari (monitoring)	Sugʻoriladigan yerlarning gidrogeologik-meliorativ monitoringning mazmuni, tamoyillari, rivojlanish tarixi va vazifalari, regional va tayanch kuzatuv quduqlarini joylashtirish, xoʻjaliklar hududida joylashgan kuzatuv va vaqtinchalik quduqlarini joylashtirish, quduqlarni kovlash va jihozlash, sugʻorish va kollektor-zovur suvlari sifati ustidan olib boriladigan kuzatuv maʼlumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish, axborot va hisobotlarni tuzish, meliorativ tizimlar loyihalarini gidrogeologik va injenergeologik asoslashning tamoyillari, qidiruv tadqiqot ishlarida loyiha tuzishning turli bosqichlardagi vazifalari, sugʻorish va zax qochirish maydonlari loyihasini asoslash, injenerlik inshootlari loyihasini gidrogeologik va injener-geologik jihatdan asoslash boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻladi.	15 %	6 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	17%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	75%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	8%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. G'.U.Yusupov, D.A.Quvvatov Meliorativ gidrogeologiya fanidan o'quv qo'llanma 2008y,
2. Ikramov R.K., Yusupov G.U., Baraev F.A., Karimova N.M. "Sug'oriladigan yerlar monitoringi va kadastr", Darslik. Toshkent "TIMI", 2008.
3. Икрамов Р.К. Принципы управления водно-солевым режимом орошаемых земель Средней Азии в условиях дефицита водных ресурсов / Тр. САНИИРИ. – Тошкент: ГИДРОИНГЕО, 2001
4. Икрамов Р.К., Юсупов Г.У., Бараев Ф.А., Каримова Н.М. "Мелиоративный мониторинг и кадастр орошаемых земель", Учебник. Тошкент "ТИИМ", 2008.